


O'ktam PRATOV,  
Bahrom AKBAROV


# TABIAT AJOYIBOTLARI

*O'rta maktab o'quvchilari uchun*

*Birinchi kitob*



TOSHKENT „O'QITUVCHI“ 2001



Qo'lingizdagi mazkur kitob sizni tabiatning ajoyibotlari — o'simliklar va hayvonot olamidagi qiziqarli ma'lumotlar sari yetaklaydi. Bu sohadagi bilim doirangiz yanada kengayishiga yordam beradi, degan umiddamiz.

Taqrizchilar:


b.f.d., prof. **Ochil Mavlonov**;

**A. Bekmuhamedov,**

**U. Toshmuhamedov,**

**X. Nurmuhamedov**

Dizayner **Shuhrat Mirfayozov**



P 4700000000-00 Buyurt.var. 2001  
353(04)-2001

ISBN 5-645-03557-7

© „O'qituvchi“ nashriyoti,  
„Ziyo-Noshir“ KShK, 2001 y.



## SO‘Z BOSHI

*Aziz kitobxon!* Bilamizki, dunyodagi barcha hur fikrli kishilar tabiatni sevadi, uni ardoqlaydi, uning go‘zalligidan zavq oladi. Tabiat ham o‘zining maftunkor latofati, turfa ranglari bilan bizni doimo bag‘riga chorlaydi. U xuddi onamiz kabi aziz va mehribon. Shuning uchun bo‘lsa kerak uni suyib *Onatabiat* deymiz. *Tabiatning turfa ranglari, uning eng ajoyibotlari* —o‘simliklar va hayvonot olamidir. Tabiatni o‘simlik va hayvonot olamisiz bir tasavvur qilib ko‘ring-a?! Hattoki, cho‘lda o‘sadigan shuvoq, yantoq kabi o‘simliklar, echkemar, gekkon degan kaltakesaklar ham cho‘lga hayot bag‘ishlaydi. Sizga ma’lumki, hozirgacha yer yuzida tuzilishi va hayot kechirish tarzi bilan bir-biridan farq qiladigan 412000 dan ortiq o‘simlik va 2,5 mln. dan ortiq hayyon turlari bor. Bu bizgacha yetib kelgani va biz bilganimiz xolos. Ming afsuski ko‘pgina o‘simlik va hayvon turlari yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketgan, ayrim turlari esa yo‘qolib ketish arafasida turibdi. O‘simlik va hayvonot olamini asrash, uni kelgusi avlodlarga hech bo‘lmaganda o‘z holicha yetkazish siz-u bizlarning muqaddas burchimizdir.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘simliklar bilan hayvonot olami o‘rtasida o‘zaro uzviylik mavjud. O‘simliklar bilan hayvonlardagi eng katta o‘xshashlik ularning hujayradan tuzilganligidir. Bundan tashqari, o‘simliklar ham, hayvonlar ham oziqlanadi. Qizig‘i shundaki, hayvonlarning juda ko‘p qismi o‘simliklar bilan oziqlanadi. Bu sohada o‘simliklar ham „bo‘sh kelmaydi“. Ayrim o‘simlik turlari hasharotlar bilan oziqlanadi.

O‘simlik va hayvonot olamidagi qiziqarli ma’lumotlar test shaklida berilgan mazkur kitob, o‘ylaymizki, o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Ularning fikrlash dunyosini kengaytiradi. Kitob „Botanika“ va „Zoologiya“ darslarida o‘tkaziladigan qiziqarli kechalarda foyda berishi tabiiy. „Tabiat ajoyibotlari“ bu sohada dastlabki kitob bo‘lgani uchun u kamchiliklardan holi bo‘imasligi tabiiy. Mualliflar Sizlarning fikr va mulohazalaringiz asosida kitobni keyingi nashrga tayyorlaydilar. Maktublariningiz uchun sizga avvaldan minnatdorchilik bildiramiz.



**1. Qaysi o'simlikning  
mevasi tarkibida 92,0%  
gacha suv bo'ladi?**

- A. Bodring
- B. Karam
- C. Baqlajon
- D. Sutlama
- E. Turp.

**2. O'zbekistonda o'sadigan qaysi o'simlikning  
ildizi 30 m gacha chuqurlikka tik tushadi?**

- A. Qandim
- B. Yantoq
- C. Saksovul
- D. Ajriq
- E. Qamish.

**3. Eng yirik to'pgulli (savatchali) o'simlikning nomi:**

- A. Kovrak
- B. Moychechak
- C. Dastargul
- D. Kungaboqar
- E. Kartoshkagul.

**4. Urug'inining hujayrasida eng kam (5,2% gacha) suv  
saqlaydigan o'simlikning nomi:**

- A. O'rik
- B. Yeryong'oq
- C. Bodom
- D. Mosh
- E. No'xat.





**5. Suv ostida eng uzoq tura oladigan hayvon:**

- A. Begemot
- B. Timsoh
- C. Tyulen
- D. Qurbaqa
- E. Pingvin.

**6. Suv ichmaydigan hayvonning nomi:**

- A. Tuya
- B. Ilon
- C. Kenguru
- D. Koala
- E. Timsoh.


**7. Laylaklar O‘zbekistonga qaysi oyda oyda uchib keladi?**

- A. Fevralda
- B. May oylari boshida
- C. Aprel oyining o‘rtalarida
- D. Yanvar oxirida
- E. Mart oylari boshida.

**8. Oqqushlar qushlarning qaysi oilasiga kiradi?**

- A. Laylaklar
- B. G‘ozlar
- C. O‘rdaklar
- D. Oqqushlar
- E. G‘ozlar va oqqushlar.





**9. Bir kecha-kunduz davomida 1 m gacha o'sishi mumkin bo'lgan o'simlik:**

- A. Qamish
- B. Bambuk
- C. Chinor
- D. Terak
- E. Zarang.

**10. O'zbekistonda ko'p ekiladigan burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar:**

- A. Bug'doy, yeryong'oq
- B. Mosh, qovun
- C. Sabzi, karam
- D. Rayhon, piyoz
- E. Mosh, no'xat.


**11. Ra'nodoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarning nomi:**

- A. Karam, na'matak
- B. Olma, zira
- C. Maymunjon, nok
- D. O'rik, bug'doy
- E. Anjir, anor.

**12. Qaysi o'simliklarning to'pgullari murakkab boshoqlardan iborat?**

- A. Zubturum, suli
- B. Bug'doy, arpa
- C. Karam, sholi
- D. Kartoshka, rayhon
- E. Yeryong'oq, kiyiko't.





### **13. Qaysi qatorda keltirilgan qushlar O'zbekiston tabiatida uchraydi?**

- A. Chumchuq, musicha, kabutar, to'ti, kaklik, pingvin
- B. To'ti, kabutar, tuyaqush, tovus, mayna, kakku
- C. Boyo'g'li, ukki, burgut, chittak, o'rdak
- D. Boyo'g'li, ukki, burgut, tuyaqush
- E. G'oz, o'rdak, ko'kqush, mayna, kolibri.

### **14. Qaysi qatorda yirtqich hayvonlar ko'rsatilgan?**

- A. Fil, timsoh, bo'ri, chiyabo'ri, toshbaqa
- B. Bo'ri, timsoh, burgut, bo'rsiq, ayiq
- C. Burgut, tulki, ukki, zebra, jirafa
- D. Sher, kit, timsoh, chiyabo'ri, delfin
- E. Ayiq, tulki, bo'ri, to'ng'iz, quyon.


### **15. Qaysi qatorda uchmaydigan qushlar ko'rsatilgan?**

- A. Tuyaqush, pingvin, o'rdak, mayna
- B. Pingvin, mayna, kakku, to'ti
- C. Kolibri, chumchuq, o'rdak, pingvin
- D. Tuyaqush, pingvin, kakadu
- E. Tuyaqush, tuvaloq, pingvin, boyo'g'li.

### **16. Qaysi qatorda sudralib yuruvchi hayvonlar nomi keltirilgan?**

- A. Echkemar, ilon, gekkon, kaltakesak, qurbaqa
- B. Xameleon, ko'zoynakli ilon, timsoh
- C. Anakonda, bo'g'ma ilon, ko'l baqasi
- D. Kapcha ilon, tipratikan, toshbaqa, jayra
- E. Gekkon, xameleon, toshbaqa, pingvin.





**17. O'zbekistonda  
uchraydigan eng zaharli  
o'simlikning nomi:**

- A. Bangidevona
- B. Mingdevona
- C. Sutlama
- D. Parpi
- E. Kuchala.

**18. Cho'lda o'sadigan bargi qipiqlimon yirik buta  
yoki daraxtning nomi:**



- A. Quyonsuyak, shuvoq
- B. Kovul, saksovul
- C. Boyalish, cherkez
- D. Yulg'un, terak
- E. Saksovul, yulg'un.


**19. Qaysi o'simlik tanasida 200 litrgacha suv  
saqlaydi?**

- A. Sutlama
- B. Kaktus
- C. Baobab
- D. Ban'yan
- E. Fikus.

**20. Barglari murakkab — toq patsimon bo'lgan  
o'simliklarni ko'rsating:**

- A. Beda, zubturum
- B. Na'matak, yong'oq
- C. Do'lana, bodom
- D. Kamxastak, jiyda
- E. Olma, maymunjon.





**21. Kolibri tuxumining og'irligi necha g keladi?**

- A. 3 - 4
- B. 0,001 - 0,003
- C. 0,5 - 1
- D. 0,19 - 0,2
- E. 1 - 1,5

**22. Qaysi qatorda yirtqich qushlar keltirilgan?**

- A. Burgut, lochin, boyo‘g‘li, kalxat
- B. Lochin, boyo‘g‘li, tuyaqush, qarqara
- C. Tasqara, ukki, qoraqush, yovvoyi o‘rdak
- D. Xo‘roz, lochin, ukki, chittak
- E. Qoraqush, flamingo, qarqara, bulduruq.


**23. Qaysi qatorda uy hayvonlari berilgan?**

- A. Sigir, qo‘y, ot, sichqon, pashsha, to‘ti
- B. Tuya, it, ot, echki, buzoq
- C. Ot, qo‘y, echki, sa’va, bulbul
- D. Sichqon, pashsha, quyon, toshbaqa
- E. Lochin, burgut, it, sigir, qo‘y.

**24. Quyon asosan sutkaning qay vaqtida bolalaydi?**

- A. Ertalab
- B. Choshgohda (soyat 12<sup>00</sup> da)
- C. Tushda
- D. Kechqurun
- E. Kunduzi.





**25. Qaysi o'simliklarning barglari poyada qarama-qarshi joylashgan?**

- A. Gazanda, qashqarbeda, kovul
- B. Bo'rigul, bo'ymodaron, marmarak
- C. Qo'ng'irbosh, arpa, yaltirbosh
- D. Tog'rayhon, kiyiko't, marmarak
- E. Dastarbosh, ermon, kakra.

**26. Bir kecha-kunduzda bir tup yantoq necha litr suvni bug'latishi mumkin?**

- A. 1 - 1,5
- B. 3 - 4
- C. 5 - 6
- D. 2 - 2,5
- E. 10 - 12 .


**27. Kartoshka tugunagi qanday ataladi?**

- A. Ildiztugunak
- B. Shakli o'zgargan poya
- C. Ildizpoya
- D. Shakli o'zgargan barg
- E. Shakli o'zgargan ildiz.

**28. Qaysi o'simlikning gullari 90 kungacha ochilib turadi?**

- A. Kaktusniki
- B. Kartoshkagulniki
- C. Orxideyaniki
- D. Bambukniki
- E. Yetmagniki.





### 29. Ilonlar:

- A. Ko‘zini yumadi
- B. Ko‘zini yummaydi
- C. Uxlaganda yumadi
- D. Tez-tez ochib yumadi
- E. C javob to‘g‘ri.

### 30. Ilonlarning:

- A. Oyog‘i bo‘lmaydi
- B. Oyog‘i ikkita bo‘ladi
- C. Oyog‘i sakkizta bo‘ladi
- D. Oyog‘i yaxshi rivojlanmagan
- E. Oyog‘i dumida bo‘ladi, ko‘rinmaydi.

### 31. Qaysi qatorda cho‘l qushlari qayd etilgan?

- A. Turna, laylak, kaklik, chumchuq
- B. Tuyaqush, tuvaloq, musicha, tosh chumchuq
- C. Tuvaloq, turna, tuyaqush
- D. To‘ti, burgut, ukki, flamingo
- E. Laylak, mayna, kakku, flamingo.

### 32. Baliqlar qanday nafas oladi?

- A. O‘pkasi yordamida
- B. Og‘zi orqali
- C. Burni va og‘zi orqali
- D. Jabralar yordamida
- E. O‘pka va jabralar yordamida.





**33. Saksovulning  
urug‘i unish xususiyatini  
necha yilgacha saqlaydi?**

- A. 10 - 15
- B. 1 - 2 (3)
- C. 5 - 10
- D. 6 - 7
- E. 1.

**34. Qaysi o‘simlikning gulqo‘rg‘oni oddiy, qizil  
bo‘ladi?**

- A. Atirgul
- B. Xrizantema
- C. Kartoshkagul
- D. Lola (qizil lola)
- E. Mingdevona.


**35. Qaysi o‘simliklar dorivor hisoblanadi?**

- A. Beda, suli
- B. Kiyiko‘t, bo‘znoch
- C. Kuchala, ajriq
- D. Itqo‘noq, bozubang
- E. Tog‘rayhon, juzg‘un.

**36. Qaysi o‘simlik, qachon ovoz chiqaradi?**



- A. Oq qayin, shamolda
- B. Yong‘oq, havo isiganda
- C. Baqiroq daraxt, gullaganida
- D. Kashtan, mevasi to‘kilganida
- E. Eman, qahraton sovuqda.



**37. Qaysi qatorda  
sutemizuvchi hayvonlarning  
nomi keltirilgan?**

- A. O'rdakburun, exidna, quyon, bug'u
- B. Fil, it, o'rdak, cho'chqa
- C. Zebra, timsoh, qo'y, toshbaqa
- D. Tipratikan, exidna, sher, tuyaqush
- E. Ot, maymun, silovsin, g'oz.

**38. Itlarning ko'rish qobiliyati qanday rivojlangan?**

- A. Rangni farq qila olmaydi
- B. Rangni farq qila oladi
- C. Uzoqdagi narsani ko'rmaydi
- D. Kechqurun ham rangni farqlaydi
- E. Faqat kunduzi rangni farqlay oladi.


**39. Dunyodagi eng mitti qushning nomi:**

- A. Sa'va
- B. Mayna
- C. Ko'kqush
- D. Kolibri
- E. Chumchuq.

**40. Pingvinlar qanday harakatlanadi?**

- A. Uchadi
- B. Qisqa masofaga uchadi
- C. Umuman uchmaydi
- D. Tik holatda qadamlab yuradi hamda suzadi
- E. Faqat suzadi.





**41. Qaysi o'simliklar gajaklari yordamida ilashib o'sadi?**

- A. Mosh, irg'ay
- B. Lavlagi, loviya
- C. Qovoq, tok
- D. Tok, yeryong'oq
- E. Jag'-jag', qozonsochiq.

**42. O'zbekistonda o'stiriladigan qaysi o'simlikning mevasi 1 m ga yetadi?**

- A. Bodringniki
- B. Loginariyaniki
- C. Baqlajonniki
- D. Turpniki
- E. Tarvuzniki.


**43. Qaysi daraxtlar barg chiqarmasdan oldin gullaydi?**

- A. Olma, nok
- B. Zarang, o'rik
- C. Qatrong'i, bodom
- D. O'rik, olxo'ri
- E. Gilos, chinor.

**44. Qaysi o'simliklarning shoxchalari tikanga aylangan?**



- A. Kamxastakniki, bodomniki
- B. Yantoqniki, bodomchaniki
- C. Bo'g'i bag'irniki, olmaniki
- D. Irg'ayniki, tobulg'iniki
- E. Uchqatniki, irg'ayniki.



### 45. Fil:

- A. To‘qqiz oyda bola tug‘adi
- B. Har olti oyda bitta bola tug‘adi
- C. 2 - 3 yilda faqat bitta bola tug‘adi
- D. Har yili bolalaydi
- E. To‘qqiz oyda faqat bitta bola tug‘adi.


### 46. Ko‘z gavhari yassi bo‘lgani uchun baliqlar:

- A. Uzoq masofani ko‘radi
- B. Juda uzoq masofani ko‘radi
- C. Faqat yaqin masofani ko‘radi
- D. Umuman ko‘rmaydi
- E. Chala ko‘radi.

### 47. Dunyoga mashhur asar „Maugli“ kitobining muallifi:


- A. D.R.Kipling
- B. Sh.Perro
- C. G.X.Andersen
- D. Aka-uka Grimmlar
- E. Loprens de Bomon.

### 48. Quyida keltirilgan qaysi hayvonlar mushuksimonlar oilasiga kiradi?



- A. Yo‘lbars, qoplon, suvsar, gepard
- B. Sher, mushuk, silovsin, qoplon
- C. Mushuk, silovsin, qunduz, qoplon
- D. Gepard, bo‘rsiq, silovsin, suvsar
- E. Arslon, yo‘lbars, qoplon, latcha.





**49. Qaysi o'simlik yer  
yuzida bundan 250 mlnq yil  
oldin paydo bo'lib, hozirga-  
cha saqlanib qolgan?**

- A. Aloe
- B. Ginkgo
- C. Sekvoyadendron
- D. Chinor
- E. Oq qayin.

**50. Qaysi daraxt vaqt-vaqt bilan tana va shoxlaridagi  
eski po'stlog'ini o'zidan ajratib turadi?**

- A. Terak
- B. Qatrong'i
- C. Shung
- D. Chinor
- E. Tol.

**51. Qaysi daraxtning po'stlog'i asosan oq va qora  
rangda bo'ladi?**


- A. Kamxastakniki
- B. Qayinniki
- C. Zarangniki
- D. Do'lantaniki
- E. Jiydaniki.

**52. O'zbekistonda tabiiy holda o'sadigan eng yirik  
bargli o'simliklarning nomi:**



- A. Lola, jumagul, boychechak
- B. Sallagul, marmarak, kovul
- C. Cherkez, bug'doy, makkajo'xori
- D. Ojud, rovoch, qatron
- E. Otquloq, ismaloq, gulxayri.





**53. Uzunligi taxminan**

**30 m, og'irligi 150 tonnagacha yetadigan ko'k kitning:**

- A. Bor-yo'g'i ikkita tishi bo'ladi
- B. Faqat jag' tishlari bor
- C. Tishlari bo'lmaydi
- D. Jag'larida konussimon 200 dan ortiq tishi bor
- E. Faqat old tishlari rivojlangan.

**54. Ma'lumki, o'rdakburun tuxum qo'yish yo'li bilan ko'payadi. Qizig'i shundaki, ular bolasini sut bilan boqadi. Shuning uchun ular:**

- A. Pingvinlar turkumiga
- B. Tuyaquhsimonlar turkumiga
- C. O'rdakburunlar turkumiga
- D. Dastlabki sutemizuvchilar turkumiga
- E. Kemiruvchilar turkumiga kiradi.


**55. ... Bu hayvon bitta tuxum qo'yib, uni maxsus teri xaltasida olib yuradi. Gap qaysi hayvon haqida ketmoqda?**

- A. Tuyaqush
- B. O'rdakburun
- C. Exidna
- D. Toshbaqa
- E. G'oz.

**56. Biologiya atamasini ilk bor fanga kiritgan olim:**

- A. J.B. Lamark va G.R.Treviranus
- B. G.Mendel
- C. K.Linney
- D. Ch.Darvin
- E. I.Pavlov.





**57. Gulkosachalari ikki qavatli o'simliklar:**

- A. Marmarak, boychechak
- B. Lola, sallagul
- C. G'o'za, gulxayri
- D. Kanakunjut, rayhon
- E. Shirach, na'matak.

**58. Yer yuzida o'sadigan o'simliklarning necha foizi shamol yordamida changlanadi?**

- A. 20 — 30
- B. 40 — 45
- C. 70 — 80
- D. 50
- E. 60.


**59. Meva bandi iste'mol qilinadigan o'simlik va uning vatani:**

- A. banan, Afrika
- B. palma, Amerika
- C. shirin goveniya, Yaponiya
- D. fikus, Afrika
- E. ban'yan, Hindiston.

**60. Qaysi o'simlik 150 yildan so'ng gullaydi?**

- A. Rovoch
- B. Ojud
- C. Kovrak
- D. Qamish
- E. Puyya Raymond.





**61. Sovuqqa eng chidamli hayvon:**

- A. Oq ayiq
- B. Qo'ng'ir ayiq
- C. Fil
- D. Mushuk
- E. Pingvin.

**62. Qaysi qush suv ichganda boshini tepaga ko'tarmaydi?**

- A. Qaldirg'och
- B. Kaptar
- C. Chumchuq
- D. Bedana
- E. Turna.


**63. O'zbekistondagi daryolarda yashaydigan, doimo suv yuzasiga chiqib havodan nafas oladigan baliqning nomi:**

- A. Oddiy sudak
- B. Oddiy laqqa
- C. Ilonbosh
- D. Zog'ora
- E. Oddiy oqqayroq.

**64. Mushuk qaysi qushni yemaydi?**

- A. Kabutarni
- B. Musichani
- C. Chumchuqni
- D. Sassiqpishakni
- E. Qaldirg'ochni.





**65. Diametri 1m, gultojisining qalinligi 5 sm keladigan dunyodagi eng yirik gulning nomi:**

- A. Aloe
- B. Kanakunjut
- C. Rafleziya
- D. Nilufar
- E. Otqulog.

**66. Gulining kattaligi to‘g‘nog‘ichning uchidek keladigan dunyodagi eng kichik gulli o‘simplikning nomi:**

- A. Xlorella
- B. Volfiya
- C. Xlamidomonada
- D. Ulotriks
- E. Spirogira.

**67. Dukkagi (mevasi)ning uzunligi 150 sm ga yetadigan burchoqdoshlar oilasiga manzub o‘simplikning nomi:**

- A. Akasiya
- B. Gledichiya
- C. Fasol
- D. Entada
- E. Loviya.

**68. Quyida nomi keltirilgan qaysi o‘simplik cho‘lda (qumlarda) boshqa o‘simpliklarning ildiziga yopishib o‘sadi?**



- A. Qandim
- B. Rovoch
- C. Quyonsuyak
- D. Yantoq
- E. Qumso‘ta.





**69. Kaptar qaysi vaqtda ko‘p nafas oladi?**

- A. Tinch turganda
- B. Yurganda
- C. Uchayotganda
- D. Don yegan vaqtida
- E. Suv ichayotganda.

**70. Quyida keltirilgan qaysi qush eng ko‘p kislorod yutadi?**

- A. Chumchuq
- B. Kolibri
- C. Kakku
- D. Kabutar
- E. Tuyaqush.

**71. Quyida nomlari keltirilgan qaysi qush eng yirik qush hisoblanadi?**


- A. Emu
- B. Avstraliya tuyaqushi
- C. Afrika tuyaqushi
- D. Nandu
- E. Amerika tuyaqushi.

**72. Quyida keltirilgan qaysi qushning barmog‘i ikkita?**



- A. Afrika tuyaqushiniki
- B. Amerika tuyaqushiniki
- C. Kakkuniki
- D. Boyo‘g‘liniki
- E. Emuniki.





**73. Lolaning guli qachon yopiladi?**

- A. Kunduzi
- B. Kechqurun
- C. Tongda
- D. Choshgohda (soat 12<sup>00</sup> da)
- E. Kechasi.

**74. Quyida nomlari keltirilgan qaysi o'simliklar qalamchasidan ko'paytiriladi?**

- A. Tok, olma, o'rik, terak
- B. Terak, gilos, yong'oq
- C. Tut, jiyda, oq qayin, anor
- D. Jiyda, terak, qoraqtat
- E. Tol, anjir, anor, terak.


**75. O'zbekistonda o'sadigan qaysi daraxt eng ko'p yashaydi?**

- A. Qatrong'i, kamxastak
- B. Zarang, tut
- C. Bodom, do'lana
- D. Archa, chinor
- E. Kamxastak, xiyol.

**76. Kosmik va suvosti kemalarida havoni tozalash uchun (kislород билан boyitish) qaysi suv o'tlaridan foydalaniladi?**

- A. Xlamidomonadan
- B. Ulotriksdan
- C. Yashil evglenadan
- D. Xlorelladan
- E. Spirogiradan.





**77. Qushlarning barmog‘i nechta bo‘ladi?**

- A. Ikki, uch, to‘rtta
- B. Faqat to‘rtta
- C. Uch va to‘rtta
- D. Faqat uchta
- E. Ikkita va to‘rtta

**78. Chap va o‘ng ko‘zining har qaysisi alohida harakat qila olish qobiliyatiga ega hayvonning nomi:**

- A. Burgut
- B. Fil
- C. Xameleon
- D. Chumchuq va chittak
- E. Karkidon.

**79. Quyida ko‘rsatilgan qaysi baliqlarning suzgich pufagi bor?**

- A. Zog‘ora, akula
- B. Cho‘rtan, seld
- C. Akula, ilonbaliq
- D. Zog‘ora, seld
- E. Cho‘rtan, akula.

**80. Quyida ko‘rsatilgan qaysi hayvonlarda mo‘ylab bo‘ladi?**



- A. Mushuk, baliq, sichqon, sher, tuyaqush
- B. Mushuk, baliq, sichqon, bo‘rsiq
- C. Mushuk, chumchuq, ko‘rsichqon, olmaxon
- D. Mushuk, gekkon, ot, it, baliq
- E. Mushuk, olmaxon, og‘maxon, kit,





**81. Barglari va gulining tashqi tomoni (sirti) kumush-rang o'simlikning nomi:**

- A. Qayin
- B. Jiyda
- C. Tol
- D. Terak
- E. Chakanda.

**82. Rayhon va kiyiko't qaysi oilaga kiradi?**


- A. Karamdoshlar
- B. Qoqio'tdoshlar
- C. Bug'doydoshlar
- D. Yalpizdoshlar
- E. Gazandadoshlar.


**83. Yoz oylarida (iyun-iyulda) qaysi o'simlikning tuklari odamning ochiq joyiga tegib ketsa pufak hosil qilib kuydiradi yoki 2 — 3 oy saqlanib turuvchi qora dog'lar hosil qiladi?**

- A. Gazanda
- B. Tog'turbit
- C. Kuchala
- D. Kovul
- E. Olg'i.

**84. Yantoqning urug'i unib chiqish xususiyatini necha yilgacha saqlaydi?**

- A. 10 - 20
- B. 15 - 30
- C. 5 - 10
- D. 1000
- E. 70 - 100.





### 85. Jirafada:

- A. Shox bo'ladi
- B. Shox bo'lmaydi
- C. Ikkita shox bo'ladi
- D. Teri bilan qoplangan 2 - 6 ta shox bo'ladi
- E. Muguz qatlamlili shox bo'ladi.

### 86. U chumchuqsimonlar turkumiga kiradi.

Tumshug'i qisqa, oyoqlari baquvvat, tirnog'i ichiga qayrilgan. Boshi, tomog'i qora, ko'kragi qora yo'lli sariq, usti, qorni va yoni sarg'ish ko'kintir. Ushbu ta'rif chumchuqsimonlar tarkibiga kiruvchi qaysi qushga tegishli?

- A. Qarqunoq
- B. Chumchuq
- C. Chittak
- D. Kabutar
- E. Mayna.

### 87. Xonaki quyonlar yil davomida necha marta bolalaydi?


- A. 2 marta
- B. 2 - 3 marta
- C. 1 marta
- D. 5 - 6 marta
- E. 3 - 4 marta.

### 88. Quyida ko'rsatilgan qaysi ilon zaharli emas?



- A. Cho'l bo'g'ma iloni
- B. Kapcha ilon
- C. Ko'zoynakli ilon
- D. Shaqildoq ilon
- E. Ko'lvor ilon.





**89. Gulqo'rg'oni aniq  
ikki (ostki, ustki) labga ajral-  
gan o'simliklarning nomi:**

- A. Marmarak, rayhon
- B. Nomozshomgul, lola
- C. Angishvonagul, qoqio't
- D. Tol, gulxayri
- E. Boychechak, beda.

**90. Cho'lida o'sadigan qaysi o'simlikning ildizi qalin  
gips qatlamlarini teshib o'ta oladi?**

- A. Qandimniki
- B. Quyonsuyakniki
- C. Keriukniki
- D. Izenniki
- E. Saksovulniki.

**91. Madaniy ekinlar orasida keng tarqalgan begona  
o'tlarni ko'rsating:**


- A. Oq sho'ra, olabuta
- B. Machin, qush tili
- C. Salomalaykum, ajriq
- D. G'umay, itqo'noq
- E. Zarpechak, qo'ytikan.

**92. Quyida ko'rsatilgan qaysi daraxtning bo'yi 155 m  
ga yetadi?**



- A. Yong'oq
- B. Archa
- C. Evkolipt
- D. Do'lana
- E. Baobab.





**93. Quruqlikda yashovchi eng og'ir hayvonning nomi:**

- A. Begemot
- B. To'ng'iz
- C. Fil
- D. Qo'tos
- E. Karkidon.

**94. Fil xartumisiz oziqlana oladimi?**

- A. Oziqlana oladi
- B. Uzun kurak tishlari yordamida oziqlanadi
- C. Oziqlana olmaydi
- D. Og'zi yordamida oziqlanaadi
- E. A javob to'g'ri.

**95. Quyida keltirilgan qaysi hayvonning suti tarkibida yog' (% larda) miqdori ko'p?**


- A. Sigir.
- B. Tog' echkisi
- C. Ot
- D. Ko'k kit
- E. Jayron.

**96. Qaysi qushning boshida toji bor?**



- A. Sassiqpopishakni
- B. Qo'ng'irni
- C. Miqqiyni
- D. Burgutni
- E. A va B javob to'g'ri.





### 97. Tuya:

- A. Bitta o'rkachli
- B. Ikkita o'rkachli
- C. Bitta yoki ikkita o'rkachli
- D. Erkagi bitta, urg'ochisi ikkita o'rkachli
- E. Faqat ikkita o'rkachli bo'ladi.

### 98. Odamlar tomonidan dastlabki xonakilashtirilgan hayvon:

- A. Ot
- B. Qo'y
- C. It
- D. Tuya
- E. Cho'chqa.

### 99. Sporali o'simliklar orasidagi balandligi 24 m ga yetadigan daraxtsimon o'simlikning nomi:

- A. Qirqbo'g'im
- B. Qirqqulok
- C. Xara
- D. Yo'sin
- E. Kladofora.

### 100. Balandligi 24 m ga, bargining uzunligi 5 m ga yetadigan, dunyodagi eng yirik sporali o'simlik si ate ya qayerda o'sadi?



- A. Avstraliyada
- B. Yangi Zelandiyada
- C. Amerikada
- D. Hindistonda
- E. Afrikada.



29-31-betlarda keltirilgan  
hayvon va o'simliklarning nomini  
toping. Ular qaysi testlarga  
taalluqli?







## **HURMATLI VA AZIZ O'QUVCHILAR!**

Qo'lingizdagi mazkur kitob o'simliklar va hayvonot olami haqidagi bilimlaringizni yana bir bora sinab olishingizda yordam bergenligi tabiiy. Biz ularning javoblarini Siz topishingizni istaganimiz uchun keltirmadik. Chunki test savollarining barchasiga to'g'ri javob yo'llagan kitobxonlar maxsus qimmatbaho sovg'a bilan taqdirlanadilar. Sovg'alarmi Bosh xomiy „*O'qituvchi*“ nashriyoti, „*Ziyo-Noshir*“ KShK, „*Mulkdor*“ gazetasi, shuningdek, usta **Rustam Hokimjon o'g'li**, yog'och o'ymakorligi bo'yicha xalqaro mukofotlar sovindori **Akmaljon Azlarov**, b.f.d., prof. **Ochil Mavlonov**, b.f.n., dots. **Anvar To'xtayev**, **Zokir Hoji Toirjon o'g'li**, **Matluba Ubodullayeva**, **Husan Olimjonovich Mahmudov**, **Sultonbek Mansurovich Hasanov**, **Murodjon Shermatov** va boshqalar ta'sis etishgan. Javob yozilgan maktublar 25 avgustgacha qabul qilinadi. G'oliblar to'plangan ballar bo'yicha aniqlanadi va „*Mulkdor*“ gazetasida 1-sentabr — *O'zbekiston Respublikasining Mustaqqilligi kunida e'lon qilinadi.*

*2001 yil — Onalar va bolalar yilida omad hamisha hamrohingiz bo'lsin, azizlar!*

Bizning manzil. Toshkent-129. Navoiy ko'chasi, 30. „*O'qituvchi*“ nashriyoti, „*Ziyo-Noshir*“ kichik sho'ba korxonasi. Xatlariningizni kutamiz.

**O'KTAM PRATOVICH PRATOV,  
BAHROM XASANOVICH AKBAROV**

### **TABIAT AJOYIBOTLARI**

*O'rta maktab o'quvchilari uchun*

*Toshkent „*O'qituvchi*“, „*Ziyo-Noshir*“ KShK -2001*

Muharrirlar M. Odilova, D. Abbosova  
Kichik muharrir M. Ibrohimova  
Texnik muharrir T. Greshnikova  
Musahhiha M. Ibrohimova

IB — 7715

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.05.2001. Bichimi 60x901/8. Kegli 16 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b.t. 4,0. Sharqli kr.-ott. 33,0. Nashr.t. 7,76. 4000 nusxada bosildi.

Buyurtma - 155.

„*Ziyo-Noshir*“ KShK, Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30. Sharlnoma 07-2001.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Toshkent rangli bosma fabrikasi. Toshkent, Usmon Yusupov ko'chasi, 86.2001.